



HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLARINI RIVOJLANISHI TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA NAMOYON BO`LISHI

Xo`jaxonov Islomxo`ja
O`zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya: Maqola 2022-2026 yillarda O`zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yettita ustuvor yo'nalishdan iborat vazifalar kontekstida huquqiy madaniyatni rivojlantirish va yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlariga bag'ishlangan. Ushbu maqolada jamiyatning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi omillar, ularning usul va vositalari chora-tadbirlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Huquq, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, qonun ustuvorligi, huquqiy tarbiya, qonunchilik, qonun ijodkorligi, huquq va erkinliklar.

Аннотация: Статья посвящена социально-философским аспектам развития и продвижения правовой культуры в контексте задач следующих семи приоритетных направлений, разработанных на основе принципа «От стратегии действий к стратегии развития» для дальнейшего развития Узбекистана в 2022-2026 гг. В данной статье анализируются факторы, которые служат повышению правовой культуры общества, их методы и меры.

Ключевые слова: Право, правовая культура, правосознание, правопорядок, правовое образование, законодательство, правотворчество, права и свободы.

Abstract: The article is devoted to the socio-philosophical aspects of the development and promotion of legal culture in the context of the tasks of the following seven priority directions developed based on the principle "From the strategy of actions to the strategy of development" for the further development of Uzbekistan in 2022-2026. This article analyzes the factors that serve to improve the legal culture of the society, their methods and measures.

Keywords: Law, legal culture, legal consciousness, rule of law, legal education, legislation, law-making, rights and freedoms.

O‘zbekiston o‘z erkini qo‘lga kiritgani jamiyat hayotining barcha sohalarida, jumladan, iqtisod, siyosat, madaniyat, huquqiy, ma‘naviy va ijtimoiy sohalaridagi ko‘plab muammolarni hal etish zaruriyatini vujudga keltirdi. Ilk mustaqillik davrida jamiyatning ma‘naviy-axloqiy asoslarini shakllantirish va rivojlantirishga e‘tibor qaratildi. Buning sababi milliy o‘zlikni anglashning ahamiyatini oshirish zarur edi. Shu bilan birga, jamiyat oldida turgan asosiy muammolardan biri bu aholining huquqiy madaniyatini takomillashtirish vazifasi turibdi. Prezident Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasida “Biz jamiyatimizda shunday huquqiy madaniyatni shakllantirishimiz kerakki, unga muvofiq Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquq va erkinliklari, sha‘ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyat emas, balki kundalik qoida va odatga aylanishi shart”[1.83] deb ta‘kidlab o‘tdi. Mamlakat rivojlanishida huquqiy madaniyatni bugungi kunning talabiga mos ravishda yuksaltirish jamiyatdagi insonlarning kelajakka bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamlaydi. Huquqiy madaniyati yuksak rivojlangan davlatning kelajagi ham ravnaq topib boradi. Yoshlarning har tomonlama barkamol inson bo‘lib yetishishlari uchun huquqiy ong va madaniyatni yanada rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. “Huquqiy madaniyat deganda jamiyatda qaror topgan huquqiy tizimning darajasini, xalqning bu huquq tizimidan xabardorlik darajasini, fuqarolarning qonunga bo‘lgan hurmati, huquqiy normalarning ijro etilish darajasi, huquqqa rioya qilmaganlarga murosasiz bo‘lish, qonunga itoatkorlik darajasini tushunamiz” [2.11] – deb ta‘rif bergan A.Saidov. “Huquqiy madaniyat fuqarolik jamiyati ma‘naviy kamolotining, davlatchilik binosi rivoji va huquqiy tizim yetukligining muhim ko‘rsatkichidir” [3.55] – deydi X.Odilqoriev. “Huquqiy madaniyat tushunchasi huquqiy ontologiyaning, ya‘ni huquq borlig‘ining ifodalovchi tushunchalardan biridir” – deb talqin etadi B.To‘ychiev. Bizningcha huquqiy madaniyat aholining huquqdan xabardorligi va unga amal qilishi, buning uchun esa huquqni davlat tomonidan bajarilishini ta‘minlovchi mexanizmining mavjudligi tushuniladi.

O‘zbekistonning 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi 2-bob 20-70-71-maqсадida aholini jumladan yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan chora va tadbirlar ishlab chiqilgan. Buning sabablaridan biri sifatida hozirda jamiyatdagi insonlarning huquqiy saviyasini yetarli emasligiga, huquqiy ta‘lim va tarbiya doirasida tizimli va uzviy olib borilmayotganligidir. Bu haqda Prezident Sh.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasida huquqiy ong va madaniyat darajasiga alohida to‘xtalib quyidagi fikrni ya‘ni “Kanadaning 1 milliondan ortiq transport vositasi mavjud bo‘lgan Kalgari shahrida joriy yilning 10 oyida avtohalokatlar tufayli 10 nafar shaxs nobud bo‘lgan. O‘zingiz solishtirib ko‘ring: jami 2 yarim milliondan ziyod avtotransport mavjud bo‘lgan bizning yurtimizda esa, shu davrda 1 ming 600 dan ortiq kishi avtohalokat qurboni bo‘lgan. Bu – og‘ir kulfat, katta yo‘qotish emasmi?! Biz yo‘l harakati qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikni

kuchaytirdik. Lekin shuning o'zi bilan muammoni to'liq yechish mumkinmi? Menimcha, yo'q! Buning sababi jamiyatda huquqiy madaniyatning yetarli darajada shakllanmagani bilan bevosita bog'liq. Biz jamiyatimizda huquqiy madaniyatni lozim darajada shakllantirmas ekanmiz, huquqbuzarlikka chek qo'ymas ekanmiz, qonunni buzish holatlari davom etaveradi"[4] deb ta'kidlab o'tdi.

Hozirda ommaviy axborot vositalari yoshlarni harakatga keltiruvchi kuchga aylanib bormoqda. Yoshlar esa unga qaram bo'lib bormoqda. Natijada ommaviy axborot vositalarining mas'uliyati yanada ortib bormoqda. Mamlakatning har bir yoshlari o'z huquq va burchlarini hamda mas'uliyatini yaxshi bilishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining bergan ma'lumotiga ko'ra 2019 yilda 13 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tomonidan 15590 ta jinoyat sodir etilgan. Bu ko'rsatkich 2020 yilda 18231ta, 2021 yilda 30526 taga 2019 yilga nisbatan 2641ta 2020 yilga nisbatan 12295 taga ortganini ko'rishimiz mumkin[5]. Mamlakat barqarorligini ta'minlash uchun albatta yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish zaruriyati tug'iladi. Bugungi kunda yoshlarning huquqiy bilimlari yetarli emasligiga, huquqiy ta'lim borasidagi olib borilayotgan ishlar tizimli va uzviy olib borilmayotganligi kabi holatlar sabab bo'lmoqda. Shaxsning huquqiy madaniyati qonunlarga bo'lgan hurmat bilan, huquqiy ong va savodxonlikning yaxshi egallanganligi bilan belgilanadi. Taraqqiyot strategiyasida davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va ta'lim tashkilotlari bilan o'zaro samarali hamkorligini yo'lga qo'yish, Tadbirkorlar va aholi, ayniqsa uning kam ta'minlangan qatlamlari uchun huquqiy hujjatlarni yurist ishtirokisiz tayyorlash imkonini beruvchi "Legal Tech" platformasini ishga tushirish, Yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, Aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarni o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish, Aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va ta'lim muassasalari bilan o'zaro samarali hamkorligini yo'lga qo'yish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Yoshlarni tarbiyalashda huquq nazariyasini uni o'qitish metodologiyasini va globallashtirish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarur. Ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim fanlarini mazmunan yangilash. Oliy ta'lim muassasalarini mutaxassisligidan kelib chiqib huquqiy ta'lim fanlarini moslashtirish. Shu bilan bir vaqtda fuqarolarning huquqiy savodxonligini ta'minlashda ommaviy axborot vositalari katta ahamiyatga ega. Ommaviy axborot vositalarining huquqiy mavzulardagi ruknlariga e'tiborini kuchaytirish, aholi o'rtasida ko'proq ko'tarilayotgan huquqiy muammolarni davriy nashrlar sahifalarida, televideniye va radio eshittirishlari, ijtimoiy tarmoqlar orqali tushuntirish hamda huquqiy targ'ibot masalasi bugungi kunda huquqiy madaniyatni shakllantirishning asosiy omili hisoblanadi. "Huquqiy targ'ibot-jamiyat va davlatning huquqiy siyosatini, strategik maqsadini kishilarga, ommaga yetkazishga qaratilgan ma'rifiy va targ'ibiy usullar. Huquqiy madaniyatning shakllanishi huquqiy targ'ibot ta'sirchanligi va xalqqa tushunarli ekaniga bog'liq. Shuning uchun, huquqiy targ'ibot huquqiy jamiyat nazariyasi, huquq

loyihasi, huquq sotsiologiyasi kabi ilm sohalarining natijalariga tayanadi”[6.654]. Har bir davlatning rivojlanishining asosiy omillaridan biri bu huquqiy madaniyat hisoblanadi. Shunday ekan yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish uchun yoshlarga quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

- OAV orqali tushuntirish, yozma soʻzlar, belgilar, rasmlar, multfilmlar, videolar, roliklar, kinolar, animatsiyalar, oʻyinlar, viktorinalar yoki targʻibotning boshqa har qanday shakldagi koʻrinishida. Lekin bularning bosh gʻoyasi aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilishi lozim;
- Barqaror demokratik jamiyat asosi sifatida inson huquqlariga hurmatni shakllantirish va mazkur huquqlarni taʼminlash uchun institutsional mexanizmlarni yanada mustahkamlash;
- Soʻz erkinligi, axborot olish va uni tarqatish erkinligiga rioya qilish kafolatiga ega boʻlgan mustaqil ommaviy axborot vositalarini izchil rivojlantirish;
- Yoshlarning siyosiy va huquqiy madaniyatini, savodxonligini yuksak darajaga koʻtarish va ularning muttasil oʻsib borishini taʼminlash zarur;
- Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda taʼlim tizimida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi;
- Yoshlar ongida shakllantirilayotgan huquqiy madaniyatni yuksaltirishda xalqimizning umumiy madaniyatiga, milliligimizga tayanishimiz kerak.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, chiqarilgan qonun va qarorlarni va strategiyada koʻzda tutilgan maqsadlarni aholi hamda yoshlarga yetkazishda, axborotni tez tarqatishga qaratishi kerak. Bunda mobil telefon va ijtimoiy tarmoqlar, televideniya, radio, matbuot orqali qisqa vaqt ichida maʼlumotlarning barchaga yetib borishiga yordam beradi. Har bir davlatning rivojlanishining asosiy omillaridan biri bu huquqiy madaniyat hisoblanadi. Shunday ekan yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev.SH. Niyati ulugʻ xalqning ishi ham ulugʻ, hayoti yorugʻ va kelajagi farovon boʻladi. –T.: Oʻzbekiston, 2019 y. 83-bet.
2. Таджиханов У., Саидов А. Хукукий маданият назарияси. 1-том. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 1998, 11-бет.
3. Одилқориев Х., Якубов У. Миллий хукукий тизим ва хукукий кадрятлар. –Т.: Ғофур Ғулом нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011, 55-бет
4. <https://uza.uz/uz/posts/bilimli-avlod-buyuk-kelazhakning-tadbirkor-khal-farovon-ayet-08-12-2018>

5. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2>
6. Ўзбекистон юридик энциклопедияси. –Тошкент: Адолат, 2009. 654-б.